

JANUBIY O'ZBEKISTON YERUSTI TUZILISHINING URBANIZATSIYA JARAYONLARI VA SHAHARLAR TARAQQIYOTIGA TA'SIRI

P.R.Qurbonov – *geografiya fanlari nomzodi, dotsent*

Qarshi davlat universiteti

Tayanch so'zlar: janubiy O'zbekiston, yerusti tuzilishi, urbanizatsiya, shahar taraqqiyoti, geomorfologiya, tabiiy resurslar, rayonlashtirish, aglomeratsiya.

Ключевые слова: южный Узбекистан, структура поверхности, урбанизация, развитие городов, геоморфология, природные ресурсы, районирование, агломерация.

Key words: southern Uzbekistan, surface structure, urbanization, city development, geomorphology, natural resources, zoning, agglomeration..

Kirish. Urbanizatsiya – aholining shahar joylarda to'planishi, aholining iqtisodiy-ijtimoiy faoliyatini shahar makonlarida amalga oshirilishi hisoblanadi. Shaharlar shakllanishiga ta'siri etuvchi omillar juda ko'p bo'lib, bunda tabiiy-geografik omillar – tabiiy sharoit va tabiiy resurslar, ayniqsa, hududning **yerusti tuzilishi** (relyef) hal qiluvchi rol o'ynaydi. Yer usti tuzilishi aholi va shaharlar joylashuvi, uning zichligi, shahar hududida arxitektura-muhandislik inshootlari, infratuzilma tarmoqlari, ko'p qavatli turar joy hamda sanoat obyektlarining qurilishi, sanitariya-ekologik (urboekologik) holati, hududiy majmualar shakllanishi va aglomeratsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatgan holda, shu hududning shaharlar to'ri va tarkibi shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda mintaqalarning mahalliy sharoitini hisobga olgan holda urbanizatsiya siyosatini olib borish, jumladan shaharlar to'ri va tarkibini mustahkamlash, hududiy o'sish qutblari bo'lishi mumkin bo'lgan yirik va o'rta shaharlarni aniqlash, yangi “aqli” shaharlar qurish, shahar ekotizimini yaxshilash, yo'ldosh shaharlar rivojlanishiga sharoit yaratishga qaratilgan qator islohotlar amalga oshirilmoqda va ijobiy natijalarga erishilmoqda. Jumladan, O'zbekiston – 2030 strategiyasida “Urbanizatsiya darajasini 51 foizdan 60 foizga yetkazish choralarini ko'rish, Samarqand va Namangan shaharlarini “millionlik shaharlar”ga aylantirish, 300 mingdan ko'p bo'lgan shahar va tumanlar sonini 28 taga yetkazish, barcha aholi punktlarining bosh rejalarini ishlab chiqish” yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan [1]. Bu borada, o'ziga xos ijtimoiy - iqtisodiy va demografik salohiyatga ega Janubiy O'zbekiston viloyatlarida urbanizatsiya jarayonlarini rivojlanishiga ta'sir etuvchi geografik omillarni aniqlash, mavjud muammoning yechimiga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakat va mintaqalarning yer usti tuzilishi (relef) va uning urbanizatsiya hamda shaharlar rivojiga ta'siri haqida ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, AQShlik olimlar Jan Gotman, Kevin Linch (1960), Brayan Berri (1967), Buyuk Britaniyalik Devid Xarvi (1973), (1985) kabi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlari asosida yer usti tuzilishi va shaharlar taraqqiyoti o'rtasidagi aloqadorlik qonuniyatlari atroflicha yoritib berilgan.

Shaharlar rivojlanishining tabiiy geografik jihatlarini bilan sobiq Ittifoq iqtisodiy geograflari V.V.Pokshishevskiy (1952, 1963), Y.G.Saushkin (1953), V.V.Vladimirov, A.S.Kryukov (1963), A.M.Kolotiyevskiy (1962), mamlakatimiz olimlaridan N.V.Smirnov (1967), T.Raimov (1969), A.Soliyev (1973,1986), G'.Pardayev (1977), A.Soatov (1993) va boshqalar shug'ullanishgan.

Tahlil va natijalar. Shaharsozlik nuqtayi nazaridan, eng avvalo, relyef va gidrografik to'ring ahamiyati katta. Ma'lumki, yer ko'p qirrali va har xil maqsadlarda ishlatiladigan muhim tabiiy boylik hisoblanadi. Binobarin, u ayni vaqtda ham tabiiy sharoit, ham tabiiy resursdir. Jumladan, yerdan eng avvalambor qishloq xo'jaligida, shuningdek, yo'l, uy-joy va shaharsozlik maqsadlarida foydalaniladi. Bevosita shaharlarning shakllanishi va rivojlanishida, ularning loyiha – qurilishida, eniga va bo'yiga o'sishida joyning yer usti tuzilishi (relyefi), seysmik faolligi va boshqa geomorfologik xususiyatlari katta mazmunga ega. Bunda joyning baland-pastligi va qiyaligi kabilar e'tiborga olinadi. Relyef bilan hududning geologik xususiyatlariga bog'liq shakllangan mineral xom ashyo resurslari shaharsozlikning eng faol omili hisoblanadi. Jumladan Robert Legget shaharsozlikda joylarning topografiyasi va geologik tuzilishiga katta ahamiyat beradi. U dunyoning, asosan Shimoliy Amerika va Yevropa mamlakatlari qadimiy shaharlari misolida shaharlar joylashishiga yer usti tuzilishi, iqlim, gidrogeologiya kabi tabiiy omillarning ta'sirini qiziqarli ma'lumotlar asosida keltirgan [2].

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, Janubiy mintaqani tabiiy va iqtisodiy geografik rayonlashtirishda bir qancha yondoshuvlar mavjud. Chunonchi, N.A.Kogay va L.N.Babushkin Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarini qishloq xo'jaligi nuqtai nazardan tabiiy geografik rayonlashtirgan. Surxondaryo tabiiy geografik okrugi doirasida Quyi Surxondaryo, O'rta Surxondaryo, Yuqori Surxondaryo, Qashqadaryo okrugida esa Sandiqli, Quyi Qashqadaryo, G'uzor va Kitob-Shaxrisabz tabiiy geografik rayonlarini ajratgan.

Bevosita shaharsozlik maqsadida tabiiy geografik sharoitni tahlil qilish va ularni rayonlashtirish bilan N.V.Smirnov hamda A.A.Sagatovlar shug'ullanishgan. N.V.Smirnov shaharsozlik nuqtai nazardan respublika hududini ikkita katta – tekislik va tog' oldi-tog' oblastlariga hamda ularning ichida o'nta tabiiy geografik okruglarga ajratib o'rgangan [4]. A.A.Sagatov esa respublika tabiiy geografik sharoitini atroflicha o'rganib, uni yer usti tuzilishiga ko'ra uchta yirik rayon – tekislik va tog'oldi vohalari, cho'llar, baland tog'oldi va tog'li hududlarga ajratgan. U o'zining nomzodlik ishida hududiy tabiiy komplekslarni asos qilib olgan [3].

O'zbekiston Milliy atlasida O'zbekiston xududini landshaft shaharsozlik nuqtai nazardan 14 ta tabiiy-shaharsozlik rayonlarga, ular esa 20 ta hudud tiplariga ajratilgan. Janubiy O'zbekiston hududi Qashqadaryo, Surxondaryo, Hisor-Ko'hitang va qisman Quyi Zarafshon tabiiy shaharsozlik rayonlariga to'g'ri keladi.

Mazkur tadqiqotda Janubiy O'zbekiston hududini shaharsozlik nuqtai nazardan rayonlashtirishda yer usti tuzilishi va tabiiy-xo'jalik rayonlarga asoslangan holda, quyidagi uchta mintaqaga ajratiladi:

1. Tekislik mintaqasi (400 metrgacha);
2. Tog'-oldi va past tog'lar mintaqasi (400-1000 metr);
3. Tog' mintaqasi (1000 metrdan yuqori).

Bunda mintaqaning uzoq geologik tarixi va geologik jarayonlarning ta'sirida shakllangan hududning yer usti tuzilishi, mineral xom ashyo va yoqilg'i resurslarining tarqalishi, seysmik holati, iqlimi, yer usti va yer osti suvlari kabi tabiiy komponentlar muhim o'rin tutadi.

Janubiy O'zbekiston hududining Earth Explorer USGS saytida joylashgan SRTM tasvirlari yuklab olinib, so'ngra ushbu tasvirlar ArcGIS Desktop 10.8.2. GAT dasturining ArcMap ilovasida hisoblanganda, jami maydonning 70,25 foizini tog' va tog' oldi hamda 29,75 foizini tekislik mintaqasi tashkil qildi, ya'ni respublika umumiy ko'rsatkichlariga mutlaqo zid holatni ko'rsatdi (respublika maydoning 21,3 foizini tog' va tog'oldi; 78,7 foizini tekislik mintaqasi tashkil etadi) [7]. Biroq, viloyatlar doirasida tog'li hududlar salmog'i turlicha bo'lib, Surxondaryo viloyatining 82,6 foiz maydoni tog' va tog' oldi mintaqasida bo'lsa, Qashqadaryo viloyatining 61,5 foiz hududi mazkur mintaqaga mansub. Professor A.Soliyev taklif etgan hududning "tog'liqlik" koeffitsiyenti ham shunga teng [5].

Janubiy O'zbekistonning **tog' mintaqasiga** asosan Tyanshan tog'ining janubiy tizmalari Hisor, Bobotog', Ko'hitang, Boysun, Chaqilkalon, Qoratepa, Surxontog' va boshqalar kiradi. Respublikaning eng baland nuqtasi Hazrati Sulton (4643 m) cho'qqisi ham shu o'lkada – Hisor tog'ida joylashgan. Mazkur hududda hozirgi vaqtda 8 ta shahar manzilgohlari mavjud bo'lib, ularda mintaqa shahar aholisining 2,4 foizi istiqomat qiladi. Shundan Boysun tipik tog' shahri bo'lib, u asosan rekreatsiya-sog'lomlashtirish markazi sifatida rivojlanib kelmoqda (1-jadval). Umuman olganda, tog' mintaqasi aholi manzilgohlari, jumladan shaharlarning vujudga kelishida o'ziga xos noqulayliklarga ham ega. Bunga tog' mintaqasining geomorfologik tuzilishi, kuchli zilzilalarning ro'y berib turishi hamda iqlimining sovuq bo'lishini misol qilishimiz mumkin. Shaharsozlik nuqtai nazardan ushbu mintaqaning ustunlik tomonlari sifatida ko'plab foydali qazilma konlari, toza havosi, rekreatsiya resurslari va yer usti suvlari bilan yaxshi ta'minlanganligini qayd etish joiz.

Tabiiy geografik mintaqaning markaziy qismini band etgan Hisor tog'larining shimoli-g'arbiy va janubi-sharqiy qismlarini o'z ichiga olgan **tog'oldi mintaqasi** o'zining qulay tabiiy sharoiti va yer-suv resurslariga ega ekanligi sababli Shaxrisabz, Kitob, Denov, G'uzor kabi qadimiy shaharlar aynan shu mintaqada shakllangan. Hozirgi vaqtda ushbu mintaqada jami shahar manzilgohlari 54,4 foizi (136 ta) va aholisining 46,4 foizini (1188 ming kishi) o'zida jamlagan. Mazkur mintaqada shaharlari asosan an'anaviy yengil va oziq-ovqat sanoatiga ixtisoslashgan (Sharq'un shahri bundan mustasno). Tog' oldi mintaqasi tabiiy komponentlar bilan yaxshi ta'minlanganligi tufayli u shaharsozlik jihatdan eng katta ustunliklarga ega. Shu bois mazkur hududda kelajakda ham yangi shaharlarning vujudga kelishi uchun qulay imkoniyatlar mavjud.

Janubiy O'zbekiston **tekislik mintaqasini**, tabiiy, xo'jalik nuqtai nazardan farq qiluvchi Sandikli cho'li, Quyi

Qashqadaryo va Surxon-Sherobod mintaqachalariga ajratiladi. O'z navbatida, Quyi Qashqadaryo va Surxon-Sherobod tekislik kichik mintaqalari qadimdan sug'oriladigan daryo vodiylari hamda qishloq xo'jaligida yangi o'zlashtirilgan yerlarni (Qarshi va Surxon-Sherobod cho'llari) o'z ichiga oladi [6]. Mazkur mintaqada yer usti tuzilishi, ba'zi qoldiq tog'lar va platolarni hisobga olmaganda, deyarli tekis bo'lib, u Qashqadaryo viloyatida g'arbdan sharqqa, Surxondaryo viloyatida janubdan shimoli-sharqqa ko'tarilib boradi. Tahlillardan yer osti suvlari sathi, ularning kimyoviy tarkibi, qadimdan foydalaniladigan va yangi o'zlashtirilgan hududlar doirasida o'zaro farqlanishlar ko'zga tashlanadi. Qarshi va Sherobod cho'llaridagi yerlar meliorativ holatining yomonlashuvi yer osti suvlari va ularning minerallasuv darajasining ko'tarilib borishiga, pirovardida tuproqning ikkilamchi sho'rlanishiga olib kelmoqda [8]. Bunday tuproqlardan shaharsozlikda binokorlik materiallari sifatida ham foydalanib bo'lmaydi.

Tekislik mintaqasining qadimdan foydalaniladigan qismi mintaqaning daryo vodiylariga to'g'ri kelganligi bois suv taqchilligi sezilmagani holda, uning yangi o'zlashtirilgan hududlarida doimiy oqar suvlarning deyarli yo'qligi aholi va qishloq xo'jaligining suvga bo'lgan talabini asosan kanallar va suv omborlari hisobidan qondirilishiga olib keladi. Ammo hozirgi vaqtda Qarshi cho'li (Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Kasbi) tumanlarida suv, ayniqsa toza ichimlik suvi muammosi keskinlashib bormoqda.

1-jadval. Janubiy O'zbekiston shahar aholi manzilgohlarining balandlik mintaqalari bo'yicha taqsimlanishi (01.01.2024-y.)

Balandlik mintaqalari	Janubiy O'zbekiston			
	soni		aholisi	
	soni	foizda	ming kishi	foizda
Jami shahar manzilgohlari Shu jumladan, balandlik mintaqalari bo'yicha:	250	100	2565	100
400 metrgacha (tekislik)	106	42,4	1314	51,2
400-1000 metr (tog'oldi)	136	54,4	1188	46,4
1000 metrdan yuqori (tog')	8	3,2	63	2,4

Balandlik mintaqalari	Surxondaryo viloyati			
	soni		aholisi	
	soni	foizda	ming kishi	foizda
Jami shahar manzilgohlari Shu jumladan, balandlik mintaqalari bo'yicha:	120	100	1041	100
400 metrgacha (tekislik)	44	36,7	451	43,3
400-1000 metr (tog'oldi)	71	59,1	537	51,6
1000 metrdan yuqori (tog')	5	4,2	53	5,1

Balandlik mintaqalari	Qashqadaryo viloyati			
	soni		aholisi	
	soni	foizda	ming kishi	foizda
Jami shahar manzilgohlari Shu jumladan, balandlik mintaqalari bo'yicha:	130	100	1524	100
400 metrgacha (tekislik)	62	47,7	864	56,7
400-1000 metr (tog' oldi)	65	50,0	651	42,7
1000 metrdan yuqori (tog')	3	2,3	9	0,6

Jadval Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasining www.surxonstat.uz va Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasining www.qashstat.uz saytlari hamda <https://earth.google.com> ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblab chiqilgan.

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil yanvar holatida iqtisodiy rayon shahar manzilgohlarining 42,4 foizi (106 ta) va ulardagi aholining 51,2 foizi (1314 ming kishi) tekislik mintaqasiga to'g'ri kelgan. Viloyatlarning ma'muriy va ko'p funksiyali markazlari Qarshi va Termiz aynan shu mintaqada joylashgan. Shuningdek, bu yerda yangi maydonlarni o'zlashtirish asosida vujudga kelgan Koson, Beshkent, Yangi-Nishon, Jarqo'rg'on, Talimarjon singari hamda Muborak – "resurs" shahri tarkib topgan.

Umuman olganda, tekislik mintaqasida kuchli zilzilalar va sel hodisalarining kamdan-kam kuzatilishi, katta miqdorda mineral xom ashyo zahiralarning aniqlanganligi, yer ustining tekisligi shaharlar shakllanishiga ijobiy ta'sir etsa, ichimlik suv manbalarining yetarli emasligi, iqlimning turli noqulayliklari bunga aks ta'sir qiladi. Janubiy O'zbekiston tabiiy geografik o'rmini shaharsozlik nuqtai nazardan qulay yoki noqulay ekanligini belgilashda uning yer usti tuzilishi, relyefi hamda hududning foydali qazilma konlari bilan qanday ta'minlanganligi katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, shaharlarning ikki asosiy shahar hosil qiluvchi va shaharga xizmat qiluvchi (ichki yo'lovchi transporti, shahar aholisiga xizmat qiluvchi tarmoqlar) funksiyalari

mavjud. Shahar hosil qiluvchi omillarga transport, ilm-fan, dam olish maskanlari, bank-moliya, har xil foydali qazilma konlari, turizm kabilar kiradi. Ular orasida tabiiy sharoit va resurslar omili eng muhimi bo'lib, ushbu omil asosida shakllangan shaharlar "resurs shaharlar" deb ataladi.

Xulosa va takliflar. Ko'rinib turibdiki, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari tabiiy sharoiti va yer usti tuzilishi, aholi va shaharlar joylashuvi nuqtayi nazardan bir-biriga ancha o'xshash. Shu sababdan ularning umumiy geografik o'rni, tabiiy resurs salohiyati va demografik vaziyatining bir xilligidan kelib chiqib, ularni urbanizatsiya rivojlanishi nuqtai nazardan ham alohida rayon sifatida ko'rish mumkin. Janubiy O'zbekiston hududining yer usti tuzilishi – ya'ni tog'li, tog'oldi va tekislik relef zonalar – shaharlashuv jarayonlarining yo'nalishi, intensivligi va funksional shakllanishida muhim geografik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Geomorfologik xususiyatlar aholi punktlarining joylashuvi, transport infratuzilmasining rivojlanishi va sanoat zonalarining tashkil topishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, tabiiy-geografik rayonlashtirish asosida amalga oshirilgan urbanizatsiya strategiyalari yuqori natija bergan va hududiy tafovutlarni kamaytirishda samarali bo'ladi. Shu bilan birga, ayrim hududlarda yer usti tuzilishining murakkabligi oqibatida shahar infratuzilma tarmoqlarini barpo etishda ayrim muammolar kuzatilmoqda. Tahlillarga asosan quyidagi takliflarni berish mumkin:

- shaharsozlik rejalarini yerusti tuzilishiga moslashtirish: shaharlarni loyihalashda relef, seysmik zonallik va gidrogeologik sharoitlar inobatga olinishi kerak. Ayniqsa, Janubiy O'zbekistonning tog'li hududlarda tabiiy xavf omillari (ko'chki, suv toshqini) hisobga olingan holda shahar bosh rejalarini ishlab chiqish lozim.

- tabiiy-geografik rayonlashtirish asosida infrastruktura tarmoqlarini rejalashtirish: Shaharlararo transport, kommunikatsiya va ijtimoiy xizmatlar joylashuvini tabiiy landshaftga mos holda takomillashtirish tavsiya etiladi.

- ilmiy monitoring tizimini joriy etish: yerusti tuzilishining o'zgarishi, ekologik muvozanat va urbanizatsiyaning o'zaro ta'sirini muntazam kuzatuvchi geografik axborot tizimlarini (GAT) joriy etish zarur.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son Farmoni.
2. Леггет Р. Города и геология. – М.: "Мир", 1976. –С. 558.
3. Сагатов А. Анализ физико – географических условий Узбекистана для целей градостроительства. Автореф. дисс. канд. геогр. наук. – Т.: 1993. – С. 23.
4. Смирнов В.Н. О влиянии природных условий и природных ресурсов на развитие и размещение городских поселений Узбекистана. // Вопросы физической и экономической географии Узбекистана. 1967, -С. 75, 104.
5. Солиев А. Ўзбекистон географияси (Ўзбекистон иктисодий ва ижтимоий географияси). –Тошкент: «Университет». 2014. 404- б.
6. Научные труды. Выпуск 217, Сурхан-Ширабадская долина (Экономико-географическая характеристика). – Ташкент: 1964.
7. Курбонов П.Р. Жанубий Ўзбекистонда урбанизация жараёнлари. Монография. -Т.: «Mumtoz so'z». 2019. 180-б.
8. Эргашев А., Эргашев Т. Основы экологии. – Т.: 2008. –С. 302.

REZYUME. Ushbu maqolada Janubiy O'zbekiston hududining yerusti tuzilishi urbanizatsiya jarayonlariga va shaharlar taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatgani geografik tahlil asosida o'rganilgan. Relef shakllari, tabiiy resurslar, geomorfologik va gidrogeologik omillar shaharlarning joylashuvi, ularning funksional rivoji, arxitektura-injenerlik loyihalarining shakllanishi, shuningdek, aglomeratsion jarayonlarga ko'rsatgan ta'siri aniqlangan. Tadqiqotda hududni tabiiy-geografik rayonlashtirish asosida urbanistik salohiyat baholangan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье на основе географического анализа рассматривается влияние рельефа и структуры земной поверхности Южного Узбекистана на процессы урбанизации и развитие городов. Выявлены особенности влияния форм рельефа, природных ресурсов, геоморфологических и гидрогеологических факторов на размещение городов, их функциональное развитие, архитектурно-инженерные проекты и агломерационные процессы. Оценен урбанистический потенциал региона на основе природно-географического районирования.

SUMMARY. This article analyzes the influence of the surface structure (relief) of Southern Uzbekistan on urbanization processes and the development of cities based on geographical research. The study identifies how landforms, natural resources, geomorphological and hydrogeological factors affect the spatial distribution of cities, their functional growth, architectural-engineering design, and agglomeration processes. The urban potential of the region is evaluated through natural-geographic zoning.

QASHQADARYO VILOYATI UMUMTA'LIM MUASSASALARI VA ULARNING INFRATUZILMASI HUDUDYIY JIHATLARI

A.U.Nurmatov – *o'qituvchi*

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: Qashqadaryo viloyati, umumta'lim muassasalari, infratuzilma, hududiy rivojlanish, demografik omillar, ta'lim geografiyasi, maktablar tarmog'i, hududiy nomutanosiblik, ijtimoiy infratuzilma, ta'lim tizimi.

Ключевые слова: Кашкадарьинская область, общеобразовательные учреждения, инфраструктура, территориальное развитие, демографические факторы, география образования, сеть школ, территориальное неравенство, социальная инфраструктура, система образования.

Key words: Kashkadarya region, General Educational Institutions, Infrastructure, territorial development, demographic factors, educational geography, school network, territorial imbalance, social infrastructure, educational system.

Kirish. XXI asrda jahon hamjamiyati barqaror taraqqiyotning ajralmas omili sifatida sifatli ta'lim tizimini shakllantirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Birlashgan millatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan "Barqaror rivojlanish maqsadlari"da har bir inson uchun inklyuziv va sifatli ta'limni ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilanib, bu yo'nalishda infratuzilmaviy sharoitlarning mavjudligi muhim o'rin tutadi. Ayni paytda ko'plab rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'z hududlarida maktablar tarmog'ini modernizatsiya qilish, ta'lim maskanlarini teng taqsimlash, zamonaviy jihozlar bilan ta'minlash orqali ta'lim sifatini yaxshilashga intilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda umumta'lim muassasalari sonini oshirish, ularni zamonaviy infratuzilma bilan ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli islohotlar olib borilmoqda [1:11]. Xususan, Qashqadaryo viloyatida aholining soni ortib borayotgani sababli ta'limga bo'lgan talab ham sezilarli darajada kuchaygan. Viloyatda yangi maktablar qurilishi, mavjudlarining rekonstruksiya qilinishi, o'quvchilarning qulay muhitda bilim olishini ta'minlash borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq ayrim tuman va shaharlar kesimida maktablar sonining va ularning infratuzilmasining hududiy nomutanosibligi hali-hanuz dolzarb muammo bo'lib qolmoqda.

Mazkur holat, ya'ni umumta'lim muassasalarining hududiy jihatdan nomutanosib joylashuvi, ularning infratuzilmaviy darajasidagi tafovutlar, maktab binolarining jismoniy va texnik holati masalalari Qashqadaryo viloyati miqyosida chuqur tahlil qilinishini talab etadi. Aynan shu jihatlar maqola mavzusining ilmiy va amaliy dolzarbligini belgilaydi. Tadqiqot natijalari asosida mavjud holatning tahlili, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha hududiy rivojlanish konsepsiyasiga mos takliflar ishlab chiqish ko'zda tutilgan. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifati va hududlararo ijtimoiy tenglikni ta'minlash yo'lida muhim qadamlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Asosiy qism. Umumta'lim muassasalarining hududiy taqsimoti va infratuzilmasini takomillashtirish masalasi

jahon miqyosida ko'plab olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Jumladan, A.G.Granberg – iqtisodiy rayonlashtirish va hududiy rivojlanish muammolarini tahlil qilgan holda, umumta'lim infratuzilmasining mintaqaviy farqlanishi davlat tomonidan qat'iy nazorat qilinishi zarurligini ilgari suradi. U ta'lim maskanlari hududiy nomutanosibligi hududlararo ijtimoiy tengsizlikka olib kelishini qayd etadi. N.N.Baranskiy – geografik rayonlashtirish nazariyasining asoschilaridan biri sifatida, ijtimoiy infratuzilmaning, jumladan, maktablarning aholi punktlarida to'g'ri taqsimlanishi hududiy rejalashtirishning asosiy komponenti bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. U, ayniqsa, qishloq joylarda ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish davlatning ustuvor vazifasi bo'lishi kerakligini urg'ulaydi. V.P.Maksakovskiy – ijtimoiy geografiya va hududiy taraqqiyot muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarida ta'lim tizimining rivojlanishi bilan hududiy ijtimoiy-iqtisodiy o'sish o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka e'tibor qaratadi [2, 10]. U maktablarning sifati va mavjudligi bevosita hududdagi inson kapitalini shakllantirish va yashash sifatini yaxshilashga xizmat qilishini ta'kidlagan.

Xalqaro miqyosda maktab infratuzilmasiga qo'yiladigan talablar ta'lim sifatini ta'minlash va o'quvchilar hamda o'qituvchilarning xavfsizligi, qulayligi uchun asosiy mezon hisoblanadi. BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va UNESCO tavsiyalarida ta'lim muassasalarining jismoniy holati, sanitariya-gigiyena sharoitlari, energiya samardorligi va texnologik jihozlanishi bo'yicha aniq standartlar belgilangan [3, 7]. Maktab binolari zamonaviy qurilish texnologiyalari asosida barqaror va ekologik toza materiallardan foydalanilgan holda bunyod etilishi, sinfxonalar yoritilishi va ventilyatsiyasi, sport va madaniy dam olish zonalarini mavjudligi talab qilinadi. Shuningdek, maktablarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) bilan jihozlanish va imkoniyati cheklangan o'quvchilar uchun qulay sharoitlar yaratilishi ham muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hukumatining ta'lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan siyosatida maktab infratuzilmasini yaxshilashga katta e'tibor qaratilgan. Milliy standartlar va normativ-huquqiy hujjatlar asosida maktab